

O'QUVCHIARNING NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI HAQIDA

Kudiyarova Venera Kadirbaevna

Nukus tumani 29-maktab direktori

kudiyarovavenera@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarida ona tilini o'qitishda o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari muhokama qilingan. Ushbu masalalarning yechimi orqali ta'lim jarayonida qoraqalpoq tilini o'qitishda o'quvchilarda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning tadqiq qilinishi, usullari xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: nutq, ta'lim tizimi, qoraqalpoq tilini o'qitish, kompetensiya, model, metodika, usullar, bosqichlar, tayyorgarlik, universallik, ta'lim.

Аннотация. В данной статье обсуждаются вопросы развития речевых компетенций учащихся при обучении родному языку в школах с каракалпакским языком обучения. Речь идет об исследовании и методах развития речевой компетенции учащихся при обучении каракалпакскому языку в образовательном процессе посредством решения этих вопросов.

Ключевые слова: речь, система образования, обучение каракалпакскому языку, компетенция, модель, методика, методы, этапы, подготовка, универсальность, образование.

Abstract. This article discusses the development of students' speech competencies in native language instruction in schools with Karakalpak as the language of instruction. This refers to the research and methods of developing students' speech competence in teaching the Karakalpak language in the educational process through solving these issues.

Keywords: speech, education system, teaching the Karakalpak language, competence, model, methodology, methods, stages, preparation, universality, education.

Qoraqalpoq tili darslarida ham nutqiy kompetensiyalarni lingvodidaktik rivojlantirish, asosan, ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning ona tili fanidan o'qituvchining darsni yuqori saviyada tashkil etishi bilan tavsiflanadi. Tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish deyarli har bir ko'nikmalar darsda rivojlantirilib boriladi. Darsda o'qituvchining, birinchi galdagi, vazifalaridan biri, o'quvchida nutqiy ko'nikmalar hosil bo'lishini nazorat qilish, o'quvchilarda nutqiy kompetensiyalarning lingvodidaktik o'sish darajalarining "sezilarli darajada etishmasligini" aniqlash va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni o'z vaqtida tuzatishdir. O'quvchilarga so'zlarning imlosi

bo'yicha imlo lug'at bilan ishlashni, ko'chirib yozish mashqlarini bajarishda o'rganib, eslab qolishni uqtirish, so'zlarning ma'naviy tuzilishida izohli lug'atlar bilan ishlash, omonim va sinonim lug'atlar bilan ishlashni o'rgatishdir. Buning uchun u darsning yakunlovchi qismida vaqt ajratsa, o'qish va yozish mashqlariga alohida urg'u bersa, nutqiy kompetensiyalar rivojlanadi. Albatta, bu jarayon o'qituvchidan birgina darslik bilan chegaralanib qolmasdan izlanishni, qo'shimcha ilmiy adabiyotlar bilan ishlashni talab qiladi.

O'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarni lingvodidaktik rivojlantirishda o'qituvchining darsga jiddiy yondashishi zarurligi A.D.Najimovanning "Ona tili darslarida o'quvchilarning nutqini o'stirishga xizmat qiluvchi mashqlar tizimi" nomli ilmiy tadqiqotida ham yoritilgan. "O'qituvchining o'qish namunasiga ko'ra o'quvchilar to'g'ri, ifodali o'qishni tadqiq qiladi. Darsda matnni o'qib berish uchun o'qituvchi puxta tayyorgarlik ko'rishi, ta'limiy maqsadga jiddiy e'tibor qaratishi, ta'limiy maqsad mazmunni chuqurroq anglashga intilishi, o'rganilayotgan matnning ayrim o'rinlari qanday o'qilishi metodik tomondan belgilab olinishi lozim. O'qituvchi ayrim tovush, bo'g'in, so'zlarni qanday o'qish kerakligini metodik izohlagach, o'quvchilar matnni navbat bilan o'qishadi. O'qituvchi ularni kuzatib, to'g'rilab boradi" [1;17-b.]. O'qituvchi so'zni adabiy til normalariga rioya etib o'qisa, so'zlarni o'qish vaqtida intonatsiya va urg'uga e'tibor bersa, leksik birliklar talaffuzi aniq eshitilsa, o'quvchilar o'qish texnikasini puxta egallaydilar.

M.E.Axmedovanning tadqiqot ishida lingvodidaktik, lingvometodik mustaqil topshiriqlar tuzishning ilmiy-nazariy asoslari orqali tilning lingvopedagogik xususiyatlari hamda nutq va tafakkurini uyg'un holda rivojlantirishda bilish darajalarini metodik rivojlantirish mazmuni o'z aksini topgan [2;116-b].

Hozirgi kunda umumta'lim maktablarida o'quvchilar uchun mustaqil topshiriqlar ta'limi yo'lga qo'yilmagan, shuning uchun 6-7-sinf o'quvchilari so'zlashish, turli vaziyatlardan shirinsuxanlik bilan chiqa olish qobiliyatlari, o'ylab, mulohaza qilib yuritish ko'nikmalarini lingvodidaktik rivojlantirishda mustaqil topshiriqlari ayniqsa, 6-7-sinf o'quvchilariga vatanparvarlik, insonparvarlik, odamiylik, oliyjanoblik, mehnatsevarlik kabi qator ma'naviy fazilatlarni rivojlantirishda qoraqalpoq badiiy asarlari va she'rlarni o'qib tahlil qilishsa, ularning nutqi sezilarli darajada rivojlanadi.

Q.A.Yusupov tomonidan qoraqalpoq adabiyotini o'qitish metodikasi darsligi o'quvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirishda samarali jihatlari e'tirof etilgan [3;66-b.]. O'quvchilarning nutq madaniyati adabiy usullar, bilan rivojlantirilsa, 6-7-sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini lingvodidaktik rivojlantirishga asosiy zamin yaratgan bo'lamiz. G.R.Bekimbetovanning tadqiqot ishida qoraqalpoq tili darslarida o'quvchilar grammatik minimumlar asosida nutqini rivojlantirish hamda nutqning funksional va psixolingvistik xususiyatlari, tinglab tushunish kompetensiyalarini lingvometodiok rivojlantirish masalalari yoritilgan Qoraqalpoq

tili darslarida nutqiy kompetensiyalarning tarkibiy komponentlarini biri hisoblangan tinglab tushunishga alohida e'tibor qaratish asnosida ularning axborotni va matnni tushunishi rivojlanadi. [4;14].

B.Kutlumurad o'g'li. "Qoraqalpoq tili orfografiyasini o'qitish usullari" nomli risolasida nutq o'stirishda to'g'ri yozish o'quvchilar nutqini lingvometodik rivojlantirishning samarali yo'llari va vositalarini qo'llashda asos bo'ladigan nazariy, metodik usullar ishlab chiqilgan [5; 60-b.].

O'zbek va qoraqalpoq tillarini qiyosiy tahlilga tortganimizda R.Safarovaning nutqni o'stirish yuzasidan o'quv-uslubiy qo'llanmasida nutq, uning turlari, o'ziga xos xususiyatlarining ilmiy-nazariy asoslariga izoh berilgan [6;45-54-b.]. Og'zaki va yozma nutq hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarining ilmiy-nazariy asoslari yuzasidan bilim, ko'nikma va hosil qilinishida o'z o'rniga ega.

O.Roziqov boshchiligida tuzilgan "Ona tili didaktikasi" [7;62-b.] nomli darslikda nutq, uning shakllarini rivojlantirish va o'stirishga oid mashq-topshiriqlarni tashkil etish bo'yicha ilmiy qarashlar ifodalangan.

Sh.Yuldashyeva qardosh tilli guruhlarida o'zbek tilini raqamli texnologiyalar vositasida o'qitishning lingvometodik asoslarini tadqiq etishda asosan, ta'lim tili va o'qitish muddatiga bog'liq o'quv yuklamasi hamda o'zbek tilini bilish darajasi, qardosh tillarning lingvistik mushtarakligiga ustivorlik berish orqali tillar transferensiyasi va interferensiyasi asosida aniqlashtirishda o'quvchilarning fikrlashida nutqiy me'yorlarga amal qilish tartibi, nutqini o'stirish yo'llari o'rgatish zarurligi ta'kidlanadi hamda "til", "me'yor" "nutq" tushunchalari mazmuni va vazifalari yoritiladi, nutq – tafakkur mahsuli. Shuning uchun ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarni lingvometodik, lingvodidaktik rivojlantirishda qoraqalpoq tili ta'limi oldiga qo'yilgan yana bir muhim talab o'quvchilarning nutqiy tafakkurini rivojlantirishdir"[8;60] deb ta'kidlangan. Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning ona tili 6-7 sinflarida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda ona tili darslarida nutqning grammatik jihatdan to'g'ri qurilish tomonini nutqiy talablarga tayanib tuzishi va yozishi nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda samara beradigan omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Нажимова А.Д. Она тили дарсларида оқувчиларнинг нутқини устиришга хизмат қилувчи машқлар тизими. (таълим қорақалпоқ ва ўзбек тилларида олиб бориладиган бошланғич синфлар мисолида. Пед.фан.(PhD). докт... дисс. автореф. – Нукус: 2022. – 54 б.

2. Ахмедова М.Е. Модул-кредит тизими учун тилшунослик фанларидан мустақил топшириқлар тузишнинг илмий-назарий асослари.: педагогика

фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган Диссертацияси - 2022. 280 бет.

3. Юсупов К. Академик лицейларда қорақалпоқ адабиётини ўқитиш методикаси (ташқил этиш шакллари, дарсдан ташқари машғулотлар). Пед. фан. докт... дисс. автореф. – Нукус: 2021. – 66 б.

4. Бежимбетова Г.Таълим бошқа тилларда олиб бориладиган мактабларда қорақалпоқ тилини ўқитиш механизмининг такомиллаштириш: пед.фан.док. (DSc) дисс.–Нукус.: 2024.285-б.

5. Б.Кутлумурад ўғли. Қорақалпоқ тили орфографиясини ўқитиш усуллари. Нукус: Билим.: 1993– 60 б.

6. Сафарова Р. Она тили таълимининг янгиланган мазмуни ва унинг дидактик асослари. Ўқув-услубий қўлланма –Т.: Фан, 1995-108 б.

7. Разиков О. Основы оптимального применения системы учебных задач в обучении. –М.: 1981.103 с .

8. Yuldasheva Sh.Sh. Raqamlashtirish sharoitida o'zbek tilini oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning lingvometodik tizimi. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi aftoreferati.T.: 2025y – 60 b.